

**TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHGA OID  
QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA**

**Ergasheva Munavvaroy Mahmudjon qizi**

*Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi 2- bosqich talabasi.*

*Rishton tumani FXDY bo'limi amaliyotchisi*

**Annotatsiya:** ushba maqolada mamlakatimizdagi ta'lism tizimiga uni takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar, qarorlar, farmonlar haqida umumiy fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** farmon, metodik qo'llanma, o'quv rejasi.

Bilamizki, bugungi kunga kelib ta'lism sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad ham talaygina albatta. Bularidan biri, mamlakatimiz yoshlarini, boshqa mamlakarlarning yoshlari bilan tengma-tang sog'lom raqobat qila olishlikdir, va mamlakatimizdagi oliy ta'lism muassasalarini rivojlangan davlatlari universiteti qatorida ko'rishlikdir. Shu sabablarga ko'ra qator farmonlar va qarorlar ishlab chiqilmoqda. Bularidan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lism-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sun Farmoni. Xo'sh bu Farmon bilan qisqacha tanishib chiqsak

Maktabgacha ta'lism vazirligi:

a) Xalq ta'limi vazirligi va Ta'lism sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda 2021-yil 1-avgustga qadar bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash hamda boshlang'ich ta'lism o'quv dasturlarining o'zaro uzviyligini ta'minlash choralarini ko'rsin;

b) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Ta'lism sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lism tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilsin

2021-yil 1-yanvardan boshlab davlat oliy ta'lism tashkilotlariga kirish uchun test sinovi topshiriqlarini tuzish va ekspertizadan o'tkazishning yangi tartibi joriy qilinsin, unga muvofiq:

test sinovi topshiriqlari davlat ta'lism standartlari va o'quv dasturlari asosida tuziladi;

test sinovi materiallarining ma'no-mazmuni umumiy o'rta ta'lism tizimidagi fanlarning o'quv dasturlariga moslashtiriladi;

abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrashi, masala va misollarni bajara olish qobiliyati va ta'limga keyingi bosqichiga

tayyorgarligini baholaydigan, kompetensiyaga asoslangan test topshiriqlari ishlab chiqiladi;

amaldagi ABITUR dasturini takomillashtirish hisobiga yangi dasturiy mahsulot ishlab chiqiladi hamda 2021/2022 o'quv yili uchun saralash test sinovlari yangi test savollari asosida o'tkaziladi.

10. Xalq ta'limi vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda:

2021-yil 1-martga qadar tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari mudirlari va metodistlari, kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari uslubchi-maslahatchilari faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqib, ushbu lavozimlarda mehnat qiladigan xodimlarga qo'yiladigan talablar va ularning faoliyat samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlasin;

2021-yil 1-aprelga qadar tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari mudirlari va metodistlari, kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari uslubchi-maslahatchilari lavozimlarini yangi talablarga mos keladigan, yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirsin.

professional ta'limning ta'lim dasturlari va o'qitish materiallari to'plamlarini mehnat bozorining talablari, tarmoq malaka ramkalari va professional standartlar asosida ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqsin va tizimli ravishda takomillashtirib borsin;

kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha joylashuvi hamda tayyorlanadigan ishchi kasblardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish uchun ish beruvchilarga biriktirsin;

professional ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning metodik ta'minotini mustahkamlash, ularni yangi ta'lim resurslari bilan ta'minlab borish imkoniyatini beradigan alohida elektron platformani ishlab chiqsin va ta'lim dasturlari, o'qitish materiallari hamda boshqa uslubiy qo'llanmalardan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatini yaratsin;

professional ta'lim muassasalari guruh rahbarlarini tayyorlash uchun o'quvchilar bilan ishlash, ular psixologiyasini o'rganish va metodik ta'minlashga qaratilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etsin;

rivojlangan davlatlarning IT-texnologiyalari, robototexnika, qurilish, turizm, transport, energetika va boshqa sohalar bo'yicha yetakchi professional ta'lim muassasalari filiallarini tashkil qilish bo'yicha tegishli choralar ko'rsin;

professional ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida professional ta'lim tashkilotlarini tashkil etish choralarini ko'rsin.

Shu kabi dolzarb mavzular ko'rib chiqilgan. Buni ko'rib O'zbekistonda tug'ilish ham bir baxt ekanligini tushunish qiyin emas.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.<https://lex.uz>
- 2.Preziden farmoni